

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А.	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А.	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
Тураева А. И.	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	221
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI	228
Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
Ismailov Naufal Nadirovich	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	245
Begzod Nishanov	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL	251
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI	259
Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.	263
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	268
Farida Nishanova	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	274
Xakimov Zafar Ibragimovich	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ)	278
Бекимбетова Мария Махсетуллаевна	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	287
Xasanova Yulduz Kayumovna	
ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДОВ РАБОТНИКОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	291
Рустамова Феруза Камоловна, Исхакова Сарвар Аюбовна	
ISSIQXONA TIPLI QUYOSH QURITGICHINING ENERGETIK, EKOLOGIK VA IQTISODIY TAHLILI.....	296
B.A. Hikmatov	
ASSESSMENT CRITERIA FOR THE EFFECTIVENESS OF DISTANCE EDUCATION IN THE EDUCATIONAL SYSTEMS OF DEVELOPED COUNTRIES.....	301
Umurzakova Gulyor Eshnazar qizi	
KO'P FUNKSIYALI PV-TROMBE DEVORIDA KONSTRUKTIV YECHIMLAR, HAVO FILTRATSIYASI VA STERILIZATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	307
Rahimova Volda Karim qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNI BARATARAF ETISH YO'LLARI.....	312
Jiyanov Laziz Najimovich	



KNOWLEDGE ASSESSMENT AND RESULTS VISUALIZATION BASED ON TEXT MINING IN E-LEARNING PLATFORMS	317
Laziz Sayimovich Safarov	
THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMMUNICATION CULTURE OF FUTURE TEACHERS.....	321
Dilnoza Jorayevna Kuvatova	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI	325
Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li	
АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	329
Бабаева Г. Я.	
О'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YOSHLARNING O'RNI.....	338
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
DIGITAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF CURRENT LEVEL AND DYNAMICS OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT	343
Ibodullayeva M.S.	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINING AUDITI	349
Almardanov Muxamadi, Bolibekov Baxtiyor, Safarov Javohir	
EKOLOGIK OMILLAR ASOSIDA HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING FAZOVIIY-AXBOROT MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA OROLBO'YI MISOLIDA)	355
Reymova Gulmira Polatovna	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI.....	362
Azamova Gulruh Akbar qizi	
MINTAQALARDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI STATISTIK MONITORING QILISH VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	366
M.Sh. Raximova	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	370
Eshniyozov Asadbek Abdinazar o'g'li	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING DOLZARB MASALALARI.....	375
Egamov Raxmatillo Mirolimovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA YIG'ISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH	380
Bisenbaev Sharyar Quwanishbay uli	
O'ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	387
Kudratov Muhammad Rustamovich	
INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	393
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KOOPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	400
Abdinazarova Feruza, Abdiraximov Fayozbek	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA XUSUSIYATLARI.....	406
Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich	



О‘ЗBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI KREDITLASH VA MUQOBIL SKORING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	410
Hamroqulov Xushbaxt Sadriddinovich	
БЕНЧМАРКИНГ ВЫВОДА БОЛЬШИХ ЯЗЫКОВЫХ МОДЕЛЕЙ НА НРС-КЛАСТЕРАХ: ЗАДЕРЖКА, ПРОПУСКНАЯ СПОСОБНОСТЬ И ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ	418
Исмайылов Эльвиз Анвар оглу	
HUDUDIY SOLIQ SALOHİYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.....	423
Jurayev Xusan Atamuratovich	
ONLAYN BRONLASH TIZIMLARIDA SUN‘IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI.....	430
Ismatillayeva Sitora Sayfidin qizi	
PAHTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA‘MINOTI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA XORIJIY DAVLATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI.....	437
Davlatov Bekzodjon Aslanxo‘jayevich	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDA XORIJIY DAVLATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI

Davlatov Bekzodjon Aslanxo'jayevich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, PhD

E-mail: bekzod8201@mail.ru

ORCID: 0009-0003-9915-771X

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat tarmoqlarini boshqarishning zamonaviy va samarali usullaridan biri hisoblangan klaster tizimida to'qimachilik korxonalarini xomashyo bilan barqaror ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tajribalarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari hamda ularning tarmoq samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, xomashyo ta'minoti, klaster tizimi, jahon to'qimachilik bozori, ishlab chiqarish samaradorligi, xorijiy tajriba, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье проанализирован передовой опыт зарубежных стран по обеспечению стабильного снабжения текстильных предприятий сырьём в рамках кластерной системы, которая является одним из современных и эффективных методов управления промышленными отраслями. Также рассмотрены возможности применения данного опыта в Узбекистане и его значение для повышения эффективности деятельности хлопково-текстильных кластеров.

Ключевые слова: текстильная промышленность, сырьевое обеспечение, кластерная система, мировой рынок текстиля, эффективность производства, зарубежный опыт, устойчивое развитие.

Abstract. This article analyzes the advanced experience of foreign countries in ensuring a stable supply of raw materials to textile enterprises within the framework of the cluster system, which is considered one of the modern and effective approaches to industrial management. The study also examines the possibilities of applying these practices in Uzbekistan and highlights their significance in improving the efficiency and sustainable development of cotton-textile clusters.

Keywords: textile industry, raw material supply, cluster system, global textile market, production efficiency, foreign experience, sustainable development.

KIRISH

Bugungi kunda jahon to'qimachilik sanoati ishlab chiqarishining asosiy qismini sun'iy kimyoviy tolalarning turli ko'rinishlaridan tayyorlanadigan aralash gazlamalar, ip-gazlama hamda trikotaj mahsulotlari tashkil etmoqda. Jahonda kimyoviy tolalardan foydalanilgan keng iste'mol tovarlarining umumiy iste'mol hajmidagi ulushi 60,0 foizni tashkil etayotgan bo'lib, yaqin kelajakda ushbu ko'rsatkichning 80,0 foizdan oshishi kutilmoqda.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda tayyor mahsulot hisoblangan kiyim-kechaklarni jahon bozoriga yetkazib berish bo'yicha yetakchi o'rinlar mos ravishda Xitoy (41 foiz), Bangladesh (13 foiz) va Turkiya (9 foiz) hissasiga to'g'ri keladi [1].

Ta'kidlash joizki, to'qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida Turkiya, Bangladesh va Xitoy alohida o'rin egallaydi. Mazkur mamlakatlarning to'qimachilik sanoatini rivojlantirish borasidagi ilg'or tajribasi respublikamizda milliy to'qimachilik sanoatini yanada takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish tizimini samarali tashkil etish maqsadida xalqaro bozorlarda aniq assortiment turlari bo'yicha talab segmentlari hamda iste'molchilarning xarid motivlarini chuqur o'rganish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuvi, an'anaviy kiyim-kechak va uy-ro'zg'or buyumlaridan tashqari to'qimachilik mahsulotlarini qo'llash sohalarining kengayishi natijasida ushbu tarmoqning iqtisodiyotdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari kosmik, tibbiyot, mudofaa

va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda keng qo'llanilmoqda.

Bunday ilg'or texnologiyalarga egalik qilish va ularni amaliyotga joriy etish davlatning sanoat siyosatidagi ustuvor strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda mahalliy to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun yetarli imkoniyat va salohiyat mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik sanoatini zamonaviy klasterlashgan sharoitlarda rivojlantirish masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, D. Barkley, R. Basant va H. Fallah o'z ilmiy ishlarida sanoat tarmoqlarini klasterlashtirishning afzalliklari, uning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni hamda klasterlashmagan tuzilmalarga nisbatan ustun jihatlari asoslab berganlar [2].

Paxta-to'qimachilik klasterlarida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan K. Xonkeldiyeva ilmiy ishlarida xo'jalik subyektlarini klasterlashtirish jarayonlari, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari hamda samaradorlikni baholashning yangi uslubiy yondashuvlari keng yoritilgan [3].

Paxta-to'qimachilik klasterlarida resurslar va zaxiralarni samarali boshqarish, shuningdek, klaster ichidagi logistika va tashish jarayonlarini takomillashtirish masalalari B. V. Nasimovning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, taqqoslash, guruhlash hamda tasniflash usullaridan samarali foydalanildi. Rasmiy xalqaro statistik manbalar asosida xorijiy mamlakatlarda paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari o'rganildi, ularning samaradorlik omillari tahlil qilindi hamda ushbu tajribalarni milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon to'qimachilik mahsulotlari bozorining asosiy eksportchilari uzoq yillar davomida Xitoy Xalq Respublikasi, Yevropa Ittifoqi va Hindiston hisoblanib kelgan. Ushbu mamlakatlarning jahon eksportidagi umumiy ulushi 2019-yilda 79,4 foizni tashkil etgan. Pandemiya davrida esa to'qimachilik mahsulotlari bozorida yetakchi eksportchilar qatoridan Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy Xalq Respublikasi o'rin olgan [5].

2023-yilda jahon bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari eksportida (kiyim-kechak mahsulotlaridan tashqari) TOP-10 davlatlarning umumiy eksport hajmi 1 901 mlrd AQSh dollarini yoki jahon eksportining 87,0 foizini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Xususan, Shveysariya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Singapur va Kanada kabi mamlakatlar global to'qimachilik savdosida faol ishtirok etib, o'z mavqelarini mustahkamlagan. Shveysariya 2023-yilda to'rtinchi o'rinni egallab, eksport hajmini 125 mlrd AQSh dollariga yetkazgan.

Jahon savdo tashkiloti (JST) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda eng yirik to'qimachilik eksportchilari orasida Buyuk Britaniyadan tashqari deyarli barcha mamlakatlar eksport hajmlarini oshirishga erishgan. Ayniqsa, Shveysariyada eksport hajmining barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lsa, boshqa mamlakatlar ham o'z eksport salohiyatlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lgan.

2023-yilda to'qimachilik mahsulotlari importida Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Yaponiya yetakchi o'rinlarni egallagan. TOP-4 mamlakatlarning jahon importidagi ulushi yuqori bo'lib, bu xalqaro savdo aloqalarining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur holat to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan global talabning izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, 2023-yilda jahon bo'yicha to'qimachilik mahsulotlari importi hajmi 1 723 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu natija pandemiya davrida ishlab chiqarish va logistika tizimlarining tiklanishi, shuningdek, xalqaro savdo faolligining oshishi bilan izohlanadi.

Jahonda kiyim-kechak mahsulotlariga bo'lgan talab aholi sonining o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda iste'mol madaniyatining rivojlanishi natijasida yil sayin ortib bormoqda. Kiyim-kechak mahsulotlari eksportida Xitoy Xalq Respublikasi yetakchilikni saqlab qolmoqda. 2023-yilda ushbu mamlakatning kiyim-kechak eksporti 690 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 9 foizga oshgan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ham mazkur yo'nalishda yuqori natijalarga erishib, 2023-yilda kiyim-kechak eksporti hajmini 368 mlrd AQSh dollariga yetkazgan. Shuningdek, Gonkong, Xitoy Taypeyi va Vetnam kabi mamlakatlarda ham eksport hajmlarining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Xususan, Xitoy Taypeyida o'sish sur'ati TOP-10 mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 20 foizni tashkil etgan.



Kiyim-kechak mahsulotlari importida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. 2023-yilda Vetnam import hajmining o'sish sur'ati bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Umuman olganda, TOP-10 mamlakatlarning aksariyatida kiyim-kechak mahsulotlari importi hajmining o'sishi kuzatilgan bo'lib, bu jahon bozorida mazkur mahsulotlarga bo'lgan talabning barqaror ravishda kengayib borayotganini tasdiqlaydi [1].

Textile Exchange tashkiloti tomonidan tayyorlangan "Preferred Fiber Market Report 2021" hisobotiga ko'ra, kunda kalava ip ishlab chiqarishda asosiy xomashyo materiali sifatida poliester yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ulushi 2020-yilda 52,0 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich paxta ulushidan qariyb ikki baravar yuqoridir. Mazkur holat kimyoviy tolalardan foydalanish ko'lamining kengayib borayotganini va to'qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini namoyon etadi.

To'qimachilik sanoati klasterlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi:

To'qimachilik sanoati mahsulotlarining jahon eksportida yetakchi o'rinlarni egallash. To'qimachilik mahsulotlari eksportida Xitoy (10,0 foiz), Gonkong, Germaniya va Italiya (8,0 foizdan), tikuvchilik mahsulotlarida esa Xitoy (17,0 foiz), Gonkong (12,0 foiz), Italiya (7,0 foiz), Turkiya, Meksika, AQSh va Germaniya (7,0 foizdan) dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilariga aylangan.

Asosiy dastgohlar va ishlab chiqarish quvvatlarini qisqa muddatlarda modernizatsiya qilish. So'nggi o'n yil davomida Xitoy va Turkiya to'qimachilik sanoatidagi dastgohlar hamda uskunalarni keng ko'lamda yangilashga muvaffaq bo'ldi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish. Davlat tomonidan ko'rsatilgan samarali qo'llab-quvvatlash natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarda to'qimachilik sanoati jadal sur'atlarda rivojlanib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada samarali taqsimlanishiga xizmat qildi. Natijada, mehnat resurslari salohiyati yuqori bo'lgan Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Janubiy Amerika mamlakatlarida ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada kengaydi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda texnologik jihatdan murakkab, yuqori qo'shilgan qiymatga ega va innovatsion mahsulotlar, jumladan, "aqlli" to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishlari rivojlandi.

Eksport daromadlarining tarkibida kiyim-kechak mahsulotlari 41 foizni, to'qimachilik mahsulotlari esa 59 foizni tashkil etadi. So'nggi yillarda tarmoqda bozor konsolidatsiyasi va savdo integratsiyasi jarayonlarining kuchayishi natijasida korxonalar faoliyati yanada samarali tashkil etilmoqda. Germaniya to'qimachilik sanoatida bozorning 43–46 foizi kichik va o'rta korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, bu tarmoqning barqaror va muvozanatli rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bozor ishtirokchilarining salmoqli qismini oilaviy korxonalar tashkil etadi. Ushbu korxonalar milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Germaniya moliyaviy tizimining bank sektoriga tayangan holda shakllangani ham tarmoq korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatning moliyaviy tizimi universal banklar, kooperativ kredit tashkilotlari hamda turli ijtimoiy-huquqiy kredit institutlarini qamrab oladi.

Kichik, o'rta va yirik korxonalarda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlar sezilarli emasligi ishlab chiqarish jarayonlarining samarali tashkil etilganidan dalolat beradi. Ishlab chiqarishning mehnat talab etuvchi bosqichlari resurs salohiyati yuqori mamlakatlarda amalga oshirilsa, yuqori texnologiyali va innovatsion bosqichlar mamlakat ichida rivojlantirilmoqda.

Nemis kompaniyalarining strategiyalari xarajatlarni optimallashtirish bilan bir qatorda diversifikatsiyalashgan mahsulotlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Davlat tomonidan mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimlarining rivojlantirilishi, shuningdek, ichki bozorni tartibga solish mexanizmlarining takomillashtirilishi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Importni tartibga solish, mahsulot kelib chiqishiga qo'yiladigan talablar va bojxona tariflari milliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay sharoit yaratishga yordam bermoqda.

Milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlash maqsadida federal hamda mintaqaviy darajadagi turli davlat va nodavlat institutlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizimlar to'qimachilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish va tarmoqning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nemis to'qimachilik sanoatining dinamik transformatsiyasi bugungi kunda ham izchil davom etmoqda. Ushbu jarayon jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi va, xususan, Xitoyning global to'qimachilik savdosidagi ulushining ortib borishi bilan chambarchas bog'liq. Xitoyning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi Yevropa Ittifoqi uchun yangi iqtisodiy sharoitlarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, Xitoyning ulkan ichki bozorining ochilishi nemis ishlab chiqaruvchilari uchun ham yangi eksport yo'nalishlari va hamkorlik imkoniyatlarini yaratdi.

Germaniya jahon to'qimachilik sanoatida kuchli raqobat sharoitida o'z mavqeini saqlab qolish bilan birga, uni yanada mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan mamlakatlardan biridir. Bunday natijalar, bir tomondan, tarmoq rivojlanishining tarixiy tajribasi va an'alariga, ikkinchi tomondan esa davlat hamda xususiy sektor



vakillarining samarali hamkorligiga asoslanadi. Mazkur tajribaning ayrim jihatlaridan O'zbekistonda ham samarali foydalanish mumkin.

Xususan, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi faol kooperatsiya va hamkorlik tizimi alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday yondashuv axborot almashish, tajriba o'rtoqlashish va umumiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun qulay platforma yaratadi. Natijada, milliy va xalqaro darajada muzokaralar olib borishga qodir bo'lgan kuchli institutsional tizim shakllanadi. Ushbu tizim nafaqat yirik korxonalar, balki kichik va o'rta biznes subyektlarining manfaatlarini ham himoya qilishga xizmat qiladi hamda sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlaydi.

Tarmoq taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda davlatning o'rni ham muhimdir. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, standartlashtirish va rag'batlantirish mexanizmlari korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Turkiya dunyoning yirik kiyim-kechak eksport qiluvchi mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallab, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport hajmi bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakat jahon to'qimachilik sanoatining eng faol va istiqbolli ishtirokchilaridan biri bo'lib, uning xalqaro bozordagi roli tobora ortib bormoqda.

Turkiya Respublikasi hukumati to'qimachilik sanoatini mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etib, uni izchil qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 1923-yildan boshlab tarmoqda davlat korxonalari tashkil etilgan va uning rivojlanishiga salmoqli investitsiyalar yo'naltirilgan.

1980-yillarda Turkiya "Full Package" (OEM — Original Equipment Manufacturing) modeli asosida jahon bozoriga mustaqil mahsulot yetkazib beruvchi sifatida kirib keldi. Bunga mamlakatda shakllangan rivojlangan to'qimachilik sanoati va keng ichki bozor muhim omil bo'ldi. Turkiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishida erkin savdo zonalarining tashkil etilishi, malakali ishchi kuchi, Yevropa bozorlariga geografik yaqinlik va qulay logistika imkoniyatlari muhim rol o'ynadi.

Keyingi bosqichda Turkiya to'qimachilik sanoati ODM (Original Design Manufacturing) va OBM (Original Brand Manufacturing) yo'nalishlariga o'tib, o'z dizaynlari va milliy brendlarini yaratishga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu jarayon davlatning kadrlar tayyorlash, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va biznes muhitini rivojlantirishga qaratilgan siyosati natijasida muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Bugungi kunda turk ishlab chiqaruvchilari mahsulotlari dunyoning 170 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Mamlakat eksportining asosiy qismi Yevropa bozorlariga yo'naltirilgan bo'lib, bu Turkiya mahsulotlarining xalqaro bozordagi yuqori raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

So'nggi besh yil davomida Turkiyaning xalqaro savdo hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida kuzatilgan qisqa muddatli pasayishlardan so'ng eksport va import hajmlari tez sur'atlarda tiklandi. Natijada, 2011-yildayoq savdo hajmlari inqirozdan oldingi darajaga yetdi. 2012-yilda to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti mamlakat umumiy eksportining 17,6 foizini tashkil etdi [6].

Bugungi kunda Turkiya to'qimachilik sanoatida "Full Package" modeli asosida faoliyat yurituvchi korxonalar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, o'z dizayni va brendiga ega bo'lgan korxonalar soni ham izchil ortib bormoqda. Bu esa tarmoqning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bosqichlariga muvaffaqiyatli o'tayotganidan dalolat beradi.

Turkiya to'qimachilik sanoatining yana bir muhim jihati shundaki, korxonalarining asosiy qismi milliy kapital asosida faoliyat yuritadi. Bu holat mamlakatning sanoat mustaqilligini mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining istiqbolli rivojlanishini ta'minlash nuqtayi nazaridan jahonning ilg'or tajribalarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nafaqat umumiy global tendensiyalarni, balki alohida mamlakatlarning amaliy tajribalarini ham tahlil qilish zarur hisoblanadi. Shu bois mazkur tadqiqotda zamonaviy to'qimachilik sanoati bozorida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotgan Germaniya, Turkiya va Xitoy tajribalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur mamlakatlarning tanlanishi bejiz emas. Ularning har biri to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos va samarali milliy strategiyalarni shakllantirgan. Ushbu strategiyalar nafaqat jahon bozorida munosib o'rin egallashga, balki uzoq muddat davomida raqobatbardoshlikni saqlab qolish va yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Germaniyaning innovatsion va institutsional yondashuvi, Turkiyaning eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli hamda Xitoyning ishlab chiqarish salohiyati va texnologik modernizatsiyaga asoslangan tajribasi O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarini yanada rivojlantirish



uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu ilg'or tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirgan holda qo'llash tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, xomashyo ta'minoti barqarorligini mustahkamlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Global Textile Market. URL: <https://www.databridgemarketresearch.com/ru/reports/global-textile-market> (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).
2. Barkley D., Henry M. Advantages and Disadvantages of Targeting Industry Clusters. Clemson University. URL: <http://www.cherokee.agecon.clemson.edu>; Basant R. Knowledge Flows and Industrial Clusters. URL: <https://scholarspace.manoa.hawaii.edu>; Fallah H., Ibrahim S. Knowledge Spillover and Innovation in Technological Clusters. Stevens Institute of Technology. URL: <http://www.personal.stevens.edu>.
3. Xonkeldiyeva K. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2021.
4. Nasimov B. Paxta-to'qimachilik klasterlari korxonalarida zaxiralarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2025.
5. Global Textile Market. URL: <https://www.databridgemarketresearch.com/ru/reports/global-textile-market> (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).
6. Tekstilnaya industriya Turtsii: razvitiye i perspektivy. URL: <https://ademas-fashion.ru/blog/tekstilnaya-turtsiya-vytesnyaya-kitay-i-zavaevyavaya-evropu/> (murojaat qilingan sana: 14.06.2026).

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100